

UDK: 311.14

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA BOZORI RIVOJLANISHINING
STATISTIK TAHLILI VA SOHANI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Eshboyev Dilshod Botir o‘g‘l,
Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD)
E-mail: edilshodbek1993@mail.ru

ANNOTASIYA. Ushbu maqolada mamlakat sug‘urta bozorining 2022-yil yakunlari bo‘yicha rivojlanishi holati o‘tgan 2021-yil ma‘lumotlari bilan taqqoslangan holda statistik tahlil qilingan. Jumladan, tadqiqot ishida O‘zbekistonda sug‘urta bozorining amaldagi tuzilmasi va so‘ngi yillarda undagi o‘zgarishlar, sug‘urta mukofotlari va sug‘urta to‘lovlari ma‘lumotlari umumiy sug‘urta tarmog‘i va hayot sug‘urtasi tarmog‘i bo‘yicha majburiy va ixtiyoriy sug‘urta turlari hamda respublika hududlari kesimida batafsil yoritib berilgan. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy institut sifatidagi so‘nggi ikki yildagi investitsiya faoliyati natijalarining investitsiya yo‘nalishlari bo‘yicha qisqacha tahlili keltirilgan. Shuningdek, tadqiqot so‘ngida O‘zbekistonda milliy sug‘urta sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan asosiy yo‘nalishlar va maqsadli ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, uning mamlakat iqtisodiy tizimidagi rolini oshirish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, sug‘urta tashkilotlari, sug‘urta brokeri, sug‘urta aktuariysi, sug‘urta agenti, majburiy sug‘urta, ixtiyoriy sug‘urta, umumiy sug‘urta tarmog‘i, hayot sug‘urtasi tarmog‘i, sug‘urta summasi, sug‘urta mukofoti, sug‘urta hodisasi, sug‘urta to‘lovi, qayta sug‘urtalash, sug‘urta tashkilotlarining depozitlari va investitsiyalari.

АННОТАЦИЯ. В данной статье приведен статистический анализ текущего состояния развития рынка страхования страны по итогам 2022 года в сравнении с прошедшим 2021 годом. В частности, в исследовательской работе подробно рассмотрены действующая структура страхового рынка в Узбекистане и произошедшие в ней изменения за последние годы, данные по страховым премиям и страховым выплатам по общей системе страхования и по системе страхования жизни в разрезе

обязательного и добровольного страхования и территорий. Приведен краткий анализ инвестиционной деятельности страховых организаций, как финансовый институт, по направлениям инвестиций за последние два года. Также, в конце исследования даны заключения и предложения по повышению роли сектора в экономической системе страны, исходя из основных направлений и установленных целевых показателей развития национального рынка страхования Узбекистана.

Ключевые слова: *страховой рынок, страховые организации, страховой брокер, страховой актуарий, страховой агент, обязательное страхование, добровольное страхование, общая система страхования, система страхования жизни, страховая сумма, страховая премия, страховой случай, страховые выплаты, перестрахование, депозиты и инвестиции страховых организаций.*

ANNOTATION. *This article presents a statistical analysis of the current state of development of the country's insurance market by the end of 2022 in comparison with the past 2021. In particular, the research paper examines in detail the current structure of the insurance market in Uzbekistan and the changes that have occurred in it in recent years, data on insurance premiums and insurance payments under the general insurance system and the life insurance system in the context of compulsory and voluntary insurance and territories. A brief analysis of the investment activity of insurance organizations, as a financial institution, in the areas of investment over the past two years is given. Also, at the end of the study, conclusions and proposals are given to increase the role of the sector in the economic system of the country, based on the main directions and established targets for the development of the national insurance market of Uzbekistan.*

Key words: *insurance market, insurance organizations, insurance broker, insurance actuary, insurance agent, compulsory insurance, voluntary insurance, general insurance system, life insurance system, sum insured, insurance premium, insured event, insurance payments, reinsurance, deposits and investments of insurance organizations.*

KIRISH

2017-yildan boshlab tubdan yangilanayotgan O'zbekiston iqtisodiyotining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan sug'urta sohasini ham keng isloh qilish, sohaga xalqaro andozalarni joriy etish, raqamlashtirish va davlat - xususiy sheriklik asosida sohani rivojlantirish bo'yicha so'ngi yillarda bir qancha yangi qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan soha bo'yicha xalqaro amaliyotga to'liq mos keladigan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun [1] yangi tahrirda qabul qilindi va 2022-yilda kuchga kiritildi, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-son [3] va 2021-yil 23-oktabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-son [4] qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079–son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida “sug‘urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug‘urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish” [2] qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-son qarori milliy sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash, sug‘urta xizmatlarining talab yuqori bo‘lgan yangi turlarini amaliyotga keng joriy etish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida qabul qilingan bo‘lib, mamlakat sug‘urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, sug‘urta bozorini jadal rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan edi.

Davlat rahbarining mazkur qarori bilan tasdiqlangan maqsadli ko‘rsatkichlarga muvofiq, 2022-yil yakuni bilan sug‘urta xizmatlari hajmining mamlakat mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 0,8 foizga, jami sug‘urta mukofotlari hajmini 5,2 trln. so‘mga, aholi jon boshiga sug‘urta mukofotlari miqdorini 148 ming so‘mga, umumiy ustav kapitali hajmini 1,2 trln. so‘mga, shuningdek, sug‘urtalovchilar jami investitsiyalarini 5,3 trln. so‘mga yetkazish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida nomlari qayd etilgan qarorlariga muvofiq sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijalari sug‘urta tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining turlari, sifati va hajmining hamda sug‘urtalovchilar investitsion faoliyatining katta sur‘atlarda o‘z aksini topmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozori rivojlanishining statistik tahlili bo‘yicha ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy mushohada, tizimli tahlil, qiyosiy va dinamik tahlil, statistik kuzatish, statistik guruhlash, o‘rtacha miqdorlar, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, variatsiya ko‘rsatkichlari, statistik jadvallar kabi usullardan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda sug'urta bozori rivojlanishining tahlili O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan har chorakda amalga oshirilib, ushbu davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borilmoqda. Jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining umumiy ko'rsatkichlari" bo'yicha ma'lumotlar sharhida har chorak va yil uchun umumiy sug'urta bozori, sug'urta kompaniyalari kesimidagi ko'rsatkichlar va hududlar kesimidagi ko'rsatkichlar bo'yicha jadval ko'rinishidagi ma'lumotlar keltiriladi [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan har chorakda e'lon qilinadigan "O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozori" ruknidagi ma'lumotlarda sohaning rivojlanish holati sug'urta tashkilotlari soni, sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar soni va hajmi, sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha (shu jumladan, sug'urta tashkilotlari - norezidentlari bilan hamda O'zbekistondagi sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha) jadvallar va tahlillar berib boriladi [8].

Shuningdek, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda sug'urta sektorining rolini oshirish, iqtisodiyotning real sektori, investitsiyalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urta yo'li bilan himoyalashning xalqaro tajribasini o'rganish, sug'urta xizmatlarini rivojlantirish, sug'urta bozorini tartibga solishning prudensial normalarini takomillashtirish hamda faoliyatni raqamlashtirish masalalari 2022-yil 27-iyunda tashkil etilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi [5] va 2022-yil 18-fevralda tashkil etilgan "Agrosug'urtalash - 2022" mavzusidagi [6] xalqaro konferensiyalarda batafsil muhokama etilgan, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dmitreeva O.G. [9] aholi daromadlarini oshishi ijtimoiy rivojlanishning yanada yuqoriroq darajasiga olib keladi va aholining jamg'armaga bo'lgan moyilligini oshishiga olib keladi degan fikrni ilgari surgan hamda daromadning oshishi, o'z navbatida, sug'urta jamg'armasining tarkibi va hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlab bergan.

A.Yu. Laykov [10] sug'urta bozori rivojlanishi istiqbollari baholashda sug'urtalovchilar, sug'urta qildiruvchilar va davlatning bu faoliyatga bo'lgan iqtisodiy manfaatlarini ilmiy tadqiq qilish va bu munosabat doirasida aniq yo'llarni aniqlash muhim deb ta'kidlaydi. Shu bilan bir qator "qachonki aynan

sug'urta qildiruvchilar eng asosiy o'rinda ko'rib chiqilsa, asosiy maqsadga erishiladi, ya'ni, Rossiyada sug'urta faoliyati munosabatlari kengayadi"deb ta'kidlab, zamonaviy milliy sug'urta bozorining yuqori pog'onasini joylashuvi haqida mutloq yangicha yondashgan.

A.N. Jilkina [11] klassik tijorat sug'urta ish jarayonida quyidagi asosiy muamolarni xal qilishini keltirib o'tgan:

- to'lov va mukofot o'rtasidagi o'zaro nisbatni (to'g'ri) topish;
- to'g'ri qaror qabul qilish uchun xalokat extimolini hisoblash;
- risk extimolini hisoblash;
- sug'urta kompaniyalari kesimini hisoblash.

Ushbu yo'nalish aktuar matematika sifatida ma'lum bo'lib, matematik modellashtirish, matematik statistika va extimollar nazariyasi metodlaridan foydalanish deb xarakterlanadi.

Shuningdek, Ruminiyalik olim S. Dragos [12] Osiyo va Yevropada joylashgan 17 davlatning 10 yillik ma'lumotlarini tahlil qilish asosida urbanizatsiya, aholi daromadlari va ularni taqsimlash, shuningdek aholining savodxonlik darajasi sug'urta sektori rivojlanishida ahamiyatli omillardan hisoblanadi degan fikrga kelgan.

Xitoylik iqtisodchi olimlar Ch. Yuan va Yu. Jiang [13] tomonidan olib borilgan tadqiqotda jahondagi eng yirik rivojlanaётgan mamlakati bo'lgan Xitoyda sug'urta sohasida amalga oshirilgan islohotlar va so'nggi yillar mobaynida sug'urtaga bo'lgan talabning oshishi natijasida sug'urta bozorini jadal rivojlantirishga erishilgani ta'kidlangan. Ular tomonidan 2000-2012-yil hududlar kesimidagi ma'lumotlar asosida umumiy sug'urta va hayot sug'urtasiga bo'lgan talabga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilgan.

Boshqa bir xitoylik olimlar L. Han, D. Li va boshqalar [14] tomonidan 1994-2005 yillar bo'lgan davr va 77 ta mamlakatni qamrab olgan holda GMM modelidan foydalanib olib borilgan tadqiqotda sug'urta bozori rivojlanishi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqotda mamlakatlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lib o'rganilgan.

A.F. Bakirov [15] hududiy sug'urta bozorini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy (aholi daromadlarining o'sishi, hududlarda ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etilishi, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi), ijtimoiy (hududlarda istiqomat qiluvchi aholi soni, hududiy sug'urta kompaniyalari va moliya institutlariga aholi ishonchi, hududlarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning yuqoriligi hamda aholi daromadlari va xarajatlari) hamda texnologik (onlayn sug'urta xizmatlarini rivojlantirish, sug'urta polislarini onlayn sotish tizimini joriy etilishi, sug'urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda sug'urta kompaniyalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash) kabi omillarga ajratgan holda tadqiq etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bazorini rivojlantirish agentligining ma‘lumotlariga muvofiq, 2023-yilning 1-yanvar holatiga respublikamizda jami 41 ta sug‘urta tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashkilotlarning faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tarkibiga ko‘ra, ularning 33 tasi umumiy sug‘urta sohasida, qolgan 8 tasi esa hayot sug‘urtasi bo‘yicha faoliyat yuritadi. Shuningdek, mamlakat sug‘urta bozorida 7 ta sug‘urta brokerlari, 5 ta sug‘urta aktuariylari va 9 155 ta sug‘urta agentlari ham faoliyat olib borgan. Sug‘urta tizimiga ishonchning barqarorligiga ta‘sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblangan To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasiga a‘zo bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari soni 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 25 taga yetgan bo‘lib, o‘tgan yil davomida 2 taga ko‘paygan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorining tuzilishi

Sug‘urta bozori tuzilishi	2022-yil 1-yanvar	2023-yil 1-yanvar	O‘zgarish (+/-)
Sug‘urta tashkilotlari soni	42	41	- 1
shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha	8	8	
Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mlrd. so‘mda)	1 589,8	1 884,1	+ 294,3
Sug‘urta brokerlari soni	5	7	+ 2
Sug‘urta aktuariylari soni	5	5	
Sug‘urta agentlari soni	9 581	9 155	- 426
shu jumladan yuridik shaxslar	2 820	2 625	- 195
To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a‘zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlarining soni	23	25	+ 2

Sug‘urta bozorining tuzilishi bo‘yicha 2023-yil 1-yanvar holati ma‘lumotlariga ko‘ra, sug‘urta tashkilotlari soni hisobot yilida 1 taga kamaygan, sug‘urta brokerlari soni 2 taga oshgan va sug‘urta agentlari soni esa 426 taga kamaygan. O‘z navbatida, 2023-yil boshiga respublika sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 1 884,1 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 294,3 mlrd. so‘mga oshgan. Ko‘rinib turibdiki, mamlakat sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali bo‘yicha 2022-yil yakuniga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichga (1,2 trln. so‘m) 2021 va 2022-yillarda to‘liq erishilgan.

Sug‘urta tashkilotlari tomonidan sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish va yangi sug‘urta turlarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar

natijasida, umumiy sug'urta va hayotni sug'urta qilish tarmoqlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar bo'yicha, 2022-yil yakuni bilan 6 231,7 mlrd. so'm miqdorida sug'urta mukofoti tushgan bo'lib, 2021 yilga nisbatan (3 732,0 mlrd. so'm) 2 499,7 mlrd. so'mga yoki 67,0 foizga ko'paygan (2-jadval). Umuman, hisobot yilidagi umumiy sug'urta mukofoti tushumi 2022-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichga (ya'ni 5,2 trln. so'm) nisbatan 1,0 trln.so'mga oshgan. O'z navbatida, aholi jon boshiga sug'urta mukofoti tushumi 2022-yilda 174,8 ming so'mni tashkil etib, o'tgan 2021-yil ko'rsatkichidan (106,9 ming so'm) 67,9 ming so'mga,yoki 63,5 foizga oshgan. Mos ravishda aholi jon boshiga sug'urta mukofoti bo'yicha 2022-yil maqsadli ko'rsatkichiga (148,0 ming so'm) ham to'liq erishilgan.

2-jadval

Umumiy sug'urta mukofotlari

Ko'rsatkichlar	31.12.2021		31.12.2022		O'sish sur'ati, %
	mlrd. so'mda	jamiga nisbatan % da	mlrd. so'mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	3 732,0	100,0	6 231,7	100,0	167,0
Umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	3 015,0	80,8	4 707,0	75,5	156,1
- majburiy sug'urta	476,3	12,8	491,3	7,9	103,1
- ixtiyoriy sug'urta	2 538,7	68,0	4 215,8	67,6	166,1
Hayotni sug'urta qilish tarmog'idagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	717,0	19,2	1 524,7	24,5	212,6
- majburiy sug'urta	25,7	0,7	26,8	0,4	104,3
- ixtiyoriy sug'urta	691,3	18,5	1 497,9	24,0	216,7
Aholi jon boshiga, ming so'mda	106,9	-	174,8	-	163,5

Umumiy sug'urta mukofoti tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, uning 5 713,7 mlrd. so'mi (yoki 91,7 foizi) ixtiyoriy sug'urtadan, 518,1 mlrd. so'mi (8,3 foizi) esa majburiy sug'urtadan tushgan tushumlar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni o'tgan 2021-yil ma'lumotlari bilan solishtirganda ko'rinib turibdiki, ixtiyoriy sug'urtadan mukofot tushumining jami sug'urta tushumidagi ulushi 5,2 foizga oshgan. Sug'urta kompaniyalarining 2022-yildagi sug'urta mukofotlari bo'yicha ma'lumotlar tahliliga ko'ra, jami tushgan sug'urta mukofotlarining 4 707,0 mlrd. so'mi (yoki jami sug'urta mukofotining 75,5 foizi)

umumiy sug'urta tarmog'idagi tashkilotlarga, qolgan 1 524,7 mlrd. so'mi (yoki 24,5 foizi) esa hayotni sug'urta qilish tarmog'idagi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Respublikada sug'urta bozorining rivojlanishi holati va sug'urta tashkilotlari faoliyatining samaradorligi nafaqat sug'urta tashkilotlari soni va ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, tuzilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofoti tushumlarining keskin ko'payishi, balki sug'urta tizimiga ishonchning oshayotganligi va sug'urta hodisalari bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar hajmining oshib borishi bilan ham baholanadi.

3-jadval

Umumiy sug'urta to'lovlari

Ko'rsatkichlar	31.12.2021		31.12.2022		O'sish sur'ati, %
	mlrd. so'mda	jamiga nisbatan % da	mlrd. so'mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	1 235,1	100,0	2 596,9	100,0	210,3
Umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	618,8	50,1	1 098,8	42,3	177,6
- majburiy sug'urta	182,4	14,8	232,8	9,0	127,6
- ixtiyoriy sug'urta	436,4	35,3	866,0	33,3	198,4
Hayot sug'urtasi tarmog'idagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	616,3	49,9	1 498,1	57,7	243,1
- majburiy sug'urta	8,6	0,7	9,3	0,3	108,1
- ixtiyoriy sug'urta	607,7	49,2	1 488,8	57,3	245,0
Aholi jon boshiga, ming so'mda	35,4	-	72,8	-	205,6

Sug'urta to'lovlariga doir ma'lumotlar (3-jadval) tahliliga ko'ra, sug'urta tashkilotlari tomonidan o'tgan 2022 yilda sug'urta hodisalarining ro'y berishiga qarab, jami 2 596,9 mlrd. so'mlik sug'urta to'lovlari amalga oshirilgan bo'lib, 2021-yil ko'rsatkichiga nisbatan 1 361,9 mlrd. so'mga yoki 2,1 barobarga ko'paygan. Bu albatta, sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchni oshishiga ijobiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. O'z navbatida, hisobot yilida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarining 2 354,8 mlrd.so'mi yoki 90,6 foizi ixtiyoriy sug'urtaga, 242,1 mlrd. so'mi esa yoki 9,3 foizi majburiy sug'urtaga to'g'ri kelgan.

O'tgan 2022-yilda sug'urta to'lovlarining 1 098,8 mlrd. so'mi (42,3 foiz) umumiy sug'urta tarmog'idagi tashkilotlar, 1 498,1 mlrd. so'mi (57,7 foiz) esa

hayot sug'urtasi tarmog'idagi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu ma'lumotlar 2021-yil yakunlari bilan solishtirilganda, umumiy sug'urta to'lovlari tarkibida umumiy sug'urta tarmog'ining ulushi 50,1 foizni, hayot sug'urtasi tarmog'i esa 49,9 foizni tashkil etgan.

O'z navbatida, respublika bo'yicha aholi jon boshiga sug'urta to'lovlari miqdori 2022-yilda 72,8 ming so'mni tashkil etgan va o'tgan 2021-yil ko'rsatkichiga (35,4 ming so'm) nisbatan salkam 2,1 barobarga oshgan, bu esa aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchining oshib borishiga turtki beradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, milliy sug'urta bozorining faoliyatini umumlashtirib tavsiflovchi ko'rsatkichlarning nominal hajmlari keskin oshish dinamikasiga ega bo'lishiga qaramay, hali respublikada bu sohaning rivojlanish ko'lami, ayniqsa hududlar bo'yicha talab darajasida emas va sug'urta bozorining rivojlanishini barqarorlashtirish, iqtisodiy tizimdagi o'rnini oshirish va mustahkamlash maqsadida keng islohotlarni davom ettirish juda muhim hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha umumiy sug'urta sohasi ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-yilda soha bo'yicha 4672,3 mlrd. so'mlik jami sug'urta mukofotlari tushumining 3 153,0 mlrd. so'mi yoki 67,5 foizi Toshkent shahriga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilda ham 60,4 foizni tashkil etgani hisobga olinsa, umumiy sug'urta sohasi bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatish asosan Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda (4-jadval).

Shu bilan birga, umumiy sug'urta sohasi bo'yicha hududlarda sug'urta mukofotlari tushumining 2021-yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati juda keskin farq qilib, Andijon (- 4,4 foiz) va Sirdaryo (-3,4 foiz) viloyatlarida salbiy natijani, Navoiy va Namangan viloyatlarida 6,9 - 7,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, Surxondaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida 17,6 - 20,4 foizga, Qashqadaryo, Jizzax, Toshkent va Buxoro viloyatlarida 31,2 - 49,0 foizga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 58,1 foizga, Xorazm viloyatida 75,4 foizga va Toshkent shahrida 74,2 foizga teng bo'lgan.

Umumiy sug'urta sohasi bo'yicha 2022-yilda jami 1087,6 mlrd. so'm miqdorida sug'urta to'lovlari amalga oshirilgan bo'lsa, ularning 812,1 mlrd. so'mi yoki 74,7 foizi Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Umumiy sug'urta sohasi bo'yicha sug'urta to'lovlari hajmining o'sish sur'atlari bo'yicha ham hududlar kesimida katta farq mavjud bo'lib, Surxondaryo (35,2 foiz), Sirdaryo (57,8 foiz), Samarqand (63,3 foiz), Toshkent (75,6 foiz) va Farg'ona (83,1 foiz) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (69,0 foiz) sug'urta to'lovlari miqdori o'tgan yilga nisbatan kamaygan bo'lsa, Navoiy (148,6 foiz), Jizzax (180,5 foiz), Buxoro (185,1 foiz) va Andijon (198,3 foiz) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (270,8 foiz) keskin o'sish kuzatilgan.

Hududlar bo'yicha umumiy sug'urta sohasi ma'lumotlari

T/r.	Hudud	Sug'urta mukofotlari, mln. so'm			Sug'urta to'lovlari, mln. so'm		
		01.01.2022	01.01.2023	O'sish sur'ati, %	01.01.2022	01.01.2023	O'sish sur'ati, %
	Umumiy	2 995 707	4 672 270	156,0	612 684	1 087 567	77,5
1.	Qoraqal-pog'iston Respublikasi	135 831	214 764	158,1	21 291	14 685	69,0
2.	Andijon viloyati	108 363	103 616	95,6	11 839	23 483	198,3
3.	Buxoro viloyati	100 861	150 307	149,0	15 946	29 517	185,1
4.	Jizzax viloyati	47 332	62 643	132,3	14 362	25 925	180,5
5.	Qashqadaryo viloyati	114 536	150 312	131,2	11 512	12 887	111,9
6.	Navoiy viloyati	67 954	72 667	106,9	8 320	12 361	148,6
7.	Namangan viloyati	81 798	87 658	107,2	13 438	13 465	100,2
8.	Samarqand viloyati	98 401	118 517	120,4	29 292	18 543	63,3
9.	Surxandaryo viloyati	63 893	74 774	117,0	40 431	14 245	35,2
10.	Sirdaryo viloyati	49 670	47 981	96,6	30 403	17 570	57,8
11.	Toshkent viloyati	124 689	167 562	134,4	83 313	62 966	75,6
12.	Farg'ona viloyati	120 784	142 024	117,6	19 706	16 384	83,1
13.	Xorazm viloyati	72 094	126 421	175,4	12 915	13 431	104,0
14.	Toshkent shahri	1 809 500	3 153 024	174,2	299 917	812 105	270,8

Hayot sug'urtasi bo'yicha jami sug'urta mukofotlari tushumi 1559,5 mlrd. so'mni, sug'urta to'lovlari hajmi esa 1 509,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan mos ravishda, 2,1 va 2,4 barobarga oshgan. Shu bilan birga, hayot sug'urtasi bo'yicha jami sug'urta mukofotining 70,0 foizi va sug'urta to'lovlarining 69,7 foizi Toshkent shahriga to'g'ri keladi (5-jadval).

Hududlar bo'yicha hayot sug'urtasi sohasi ma'lumotlari

T/r.	Hudud	Sug'urta mukofotlari			Sug'urta to'lovlari		
		01.01.2022	01.01.2023	O'sish sur'ati, %	01.01.2022	01.01.2023	O'sish sur'ati, %
	Umumiy	736 317	1 559 455	211,8	622 377	1 509 359	242,5
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	26 208	47 763	182,2	22 790	47 362	207,8
2.	Andijon viloyati	22 491	61 733	274,5	17 524	61 370	350,2
3.	Buxoro viloyati	11 493	16 681	145,1	7 954	16 306	205,0
4.	Jizzax viloyati	11 267	16 275	144,5	8 749	16 342	186,8
5.	Qashqadaryo viloyati	6 255	14 203	227,1	5 418	14 344	264,7
6.	Navoiy viloyati	33 244	66 379	199,7	24 657	63 679	258,3
7.	Namangan viloyati	52 781	80 969	153,4	35 380	76 630	216,6
8.	Samarqand viloyati	13 211	26 375	199,6	9 728	24 999	257,0
9.	Surxandaryo viloyati	8 063	11 243	139,4	7 396	10 962	148,2
10.	Sirdaryo viloyati	5 387	8 907	165,3	4 030	9 492	235,5
11.	Toshkent viloyati	25 116	32 514	129,5	21 632	33 052	152,8
12.	Farg'ona viloyati	39 040	56 118	143,7	32 843	56 731	172,7
13.	Xorazm viloyati	16 768	27 763	165,6	11 385	26 051	228,8
14.	Toshkent shahri	464 994	1 092 531	235,0	412 891	1 052 042	254,8

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412- sonli qaroriga asosan milliy sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha belgilangan asosiy yo'nalishlardan biri sifatida "sug'urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish" belgilangan. Shu o'rinda, turli sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan tushadigan pul mablag'laridan hosil bo'ladigan erkin moliyaviy resurslarini investitsiya maqsadlariga yo'naltirish sug'urta tashkilotlarining moliyaviy institut sifatidagi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Respublika sug'urta tashkilotlarining

investitsion faoliyati bo'yicha joriy yilning 1-yanvar holatiga bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, ular tomonidan investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan mablag'larning umumiy hajmi 4 751,7 mlrd. so'mni tashkil etgan va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1005,0 mlrd. so'mga yoki 26,8 foizga oshgan (6-jadval).

6-jadval

Sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati

Ko'rsatkich nomi	31.12.2021		31.12.2022		O'sish sur'ati, %
	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan % da	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	3 746,7	100,0	4 751,7	100,0	126,8
Depozitlar (omonatlar)	2 208,6	58,9	2 896,6	61,0	131,2
Qimmatli qog'ozlar	1 096,0	29,3	1 287,9	27,1	117,5
Zaymlar	47,4	1,3	60,8	1,3	128,1
Ko'chmas mulk	247,6	6,6	358,9	7,6	145,1
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	142,2	3,8	118,2	2,5	83,1
Boshqa investitsiyalar	5,1	0,1	29,3	0,6	574,5

Shu bilan birga, 2022-yil yakunida sug'urtalovchilar jami investitsiyalarini 5,3 trln. so'mga yetkazish bo'yicha yuqorida qayd etilgan maqsadli ko'rsatkichga erishilmagan (- 0,5 trln. so'm). Sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati bo'yicha 6 - jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda jami investitsiyalarning 2 896,6 mlrd. so'mi (yoki jamiga nisbatan 61,0 foiz) depozitlarga, 1 287,9 mlrd. so'mi (27,1 foiz) qimmatli qog'ozlarga, 358,9 mlrd. so'mi (7,6 foiz) ko'chmas mulkka, 118,2 mlrd. so'mi (2,5 foiz) tashkilotlar ustav fondidagi ishtirokiga, 60,8 mlrd. so'mi (1,3 foiz) zaymlarga va 29,3 mlrd. so'mi (0,6 foiz) boshqa investitsiyalarga yo'naltirilgan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2022-yilda sug'urta tashkilotlari tomonidan investitsiyalar asosan depozitlarga (jami investitsiyalarning 61,0 foizi), qimmatli qog'ozlarga (27,1 foizi) va ko'chmas mulkka (7,6 foizi) yo'naltirilgan bo'lib, o'tgan yillardagi yo'nalishlar va nisbatlar saqlanib qolgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son qaroriga asosan milliy sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha belgilangan asosiy yo'nalishlardan biri - "sug'urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to'lov qobiliyati va

moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish" – belgilanganini inobatga olib, sug'urta tashkilotlarining investitsiya instrumentlari ro'yxatini kengaytirish va ularning, shu jumladan ipoteka, lizing va mikromoliyalash va boshqa bozorlardagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish talab etiladi.

Shu sababli, O'zbekistonda milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha belgilangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, sug'urta sektorining mamlakat iqtisodiy tizimidagi rolini keskin oshirishga erishish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

yaqin va o'rta muddatli davrda sug'urta tashkilotlarining hududiy bo'linmalari tarmog'ini, ayniqsa qishloq joylarda kengaytirish;

sohada zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va raqamlashtirishni keng joriy etish, sug'urta xizmatlarining elektron turlarini faol tatbiq etish va rivojlantirish;

raqobat sharoitida zamonaviy sug'urta xizmatlarini amaliyotga kiritish va yangi xizmat turlarini taqdim etishda marketing tizimidan keng foydalanish;

sug'urtaga bo'lgan ishonchni oshirish, sug'urta hodisasi bo'yicha da'volarni ko'rib chiqish muddatini va taqdim etiladigan hujjatlarni qisqartirish, sug'urta hodisasini adolatli baholash va tezkor ravishda to'lash tizimini keng joriy qilish;

sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini va lizing faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantirish va lizing xizmatlari bo'yicha soliqqa tortish tizimini takomillashtirish;

milliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqishini ta'minlash, ilg'or korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish orqali xalqaro reytinglar olish;

sug'urta sohasida zamonaviy kadrlar tayyorlash, mutaxassislarni nufuzli xorijiy bilim yurotlarida o'qitish va yetakchi kompaniyalarda malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son va 2021-yil 23-oktabrdagi "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5265-son qarorlarida belgilangan vazifalarning va yuqorida bildirilgan takliflarni bosqichma - bosqich va tizimli amalga oshirilishi mamlakat sug'urta bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga to'liq erishishni, shuningdek, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining turlari, sifati va hajmining hamda sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchning oshishini, sug'urtalovchilar investitsion faoliyatining o'sib borishini ta'minlaydi. Pirovardida esa, sug'urta sohasi bozor iqtisodiyotining muhim infratuzilmalari

qatorida, jadal rivojlanib borayotgan va shu bilan birga kelgusida mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri sifatidagi faoliyat turiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabr *"Sug'urta faoliyati to'g'risida"*gi O'RQ-730-son Qonuni. <https://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktabr *"Raqamli O'zbekiston – 2030"* strategiyasini tasdiqlash va samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" PF-6079–son Farmoni. <https://www.lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgust *"O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PQ-4412-son qarori. <https://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktabr *"Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"*gi PQ-5265-son qarori. <https://www.lex.uz>
5. *"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari"* mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami, Toshkent, 2022-yil 27-iyun.
6. *"Agrosug'urtalash-2022"* mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami, Toshkent, 2022-yil 18-fevral.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining rasmiy veb- sayti: <https://www.imda.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb – sayti: <https://www.stat.uz>
9. Дмитриева О.Г. Региональная экономическая диагностика. СПб: Санкт-Петербургский университет экономики и финансов. – 1992. – 272 с
10. Лайков А.Ю .Перспективы страхового бизнеса в России и условиях действия системных ограничений. <https://www.insur-today.ru>
11. Жилкина А.Н. Проблемы и основные направления совершенствования управления инновационными процессами в страховании стр. 28. <https://cyberleninka.ru>
12. Dragos S. (2014). Life and non-life insurance demand: the different effects of influence factors in emerging countries from Europe and Asia. Economic Research. Volume 27, Issue 1.

13. Yuan Ch., Jiang Y. (2015). Factors affecting the demand for insurance in China. Applied Economics Volume 47, Issue 45.

14. Han L., Li D., Moshirian F. and Tian Y. (2010). Insurance Development and Economic Growth. The Geneva Papers on Risk and Insurance. Issues and Practice Vol. 35, No. 2, pp. 183-199.

15. Бакиров А.Ф. (2007). Формирование и развитие рынка страховых услуг: Монография. – М.: Финансы и статистика, 304 стр.